



## Behbudi and Ibrat's perspectives on modern education as reflected in their travel memoirs

Feruza URAKOVA<sup>1</sup>

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received April 2025  
Received in revised form  
10 April 2025  
Accepted 2 May 2025  
Available online  
25 June 2025

#### *Keywords:*

Behbudi,  
Ibrat,  
Jadidism,  
travel memoirs,  
modern education,  
school reform,  
textbooks,  
enlightenment,  
foreign experience,  
Jadid schools.

### ABSTRACT

This article analyzes the views of Mahmudkhoja Behbudi and Is'hoqkhoja Ibrat on modern education as reflected in their travel memoirs. As prominent figures of the Jadid movement in the late 19th and early 20th centuries, both scholars visited various foreign countries where they studied the progress made in education, publishing, libraries, theaters, and healthcare institutions. They firmly believed that it was necessary to implement these progressive ideas in Turkestan and thus contributed to the development of textbooks, the opening of modern schools, and the establishment of national journalism. The article employs comparative and analytical methods to examine their travel writings, uncovering their forward-thinking educational ideas. Behbudi and Ibrat considered education to be a powerful tool for overcoming ignorance and achieving national enlightenment. Their legacy remains relevant today and can serve as a valuable foundation for the ongoing educational reforms in modern Uzbekistan.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp229-236>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Behbudi va Ibratning safar xotiralarida zamonaviy ta'lim xususidagi qarashlari

### ANNOTATSIYA

#### *Kalit so'zlar:*

Behbudi,  
Ibrat,  
jadidchilik,  
safari xotiralar,  
zamonaviy ta'lim,  
maktab islohoti,  
darsliklar,

Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudi va Is'hoqxonto'ra Ibratning safar xotiralarida asosida ular ilgari surgan zamonaviy ta'limga oid qarashlar tahlil qilinadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan bu ikki jadid ziyolisi xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari davomida ta'lim, matbuot, kutubxona, teatr, shifoxona kabi madaniy-ma'rifiy

<sup>1</sup> PhD student, Uzbekistan national Pedagogical University named after Nizami.

ma'rifatparvarlik,  
horijiy tajriba,  
jadid maktablari.

muassasalarning taraqqiyoti bilan tanishgan. Ular bu tajribalarni o'z yurti — Turkistonda tatbiq etish zarur deb hisoblashgan va shu yo'lda darsliklar yaratgan, maktablar ochgan, matbuot asoslarini shakllantirgan. Maqolada safar xotiralari qiyosiy va tahliliy yondashuv asosida o'rganilib, zamonaviy ta'limga oid ilg'or fikrlar aniqlanadi. Behbudiy va Ibratning fikricha, ta'lim — bu xalqni jaholatdan chiqaruvchi kuch, millatning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi eng muhim omildir. Ularning tajribasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar uchun g'oyaviy va amaliy asos bo'la oladi.

## Взгляды Бехбуди и Ибрата на современное образование в их путевых заметках

### Ключевые слова:

Бехбудий,  
Ибрат,  
джадидизм,  
путевые заметки,  
современное образование,  
школьная реформа,  
учебники,  
просветительство,  
зарубежный опыт,  
джадидские школы.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются взгляды Махмудходжи Бехбуди и Исхокходжи Ибрата на современное образование, отражённые в их путевых заметках. Эти выдающиеся представители джадидского движения конца XIX – начала XX века, путешествуя по различным странам, изучали достижения в сфере образования, печати, библиотечного дела, театра и здравоохранения. Они считали необходимым внедрить передовой зарубежный опыт в систему образования Туркестана и внесли значительный вклад в разработку учебников, открытие новых школ и становление национальной прессы. В статье путевые заметки Бехбуди и Ибрата анализируются на основе сравнительного и содержательного подхода. Делается вывод о том, что, по мнению данных просветителей, образование является ключевым фактором духовного возрождения нации и её освобождения от невежества. Их идеи сохраняют актуальность и могут быть полезны в условиях современных реформ в системе образования Узбекистана.

This article analyzes the views of Mahmudkhoja Behbudi and Is'hoqkhoja Ibrat on modern education as reflected in their travel memoirs. As prominent figures of the Jadid movement in the late 19th and early 20th centuries, both scholars visited various foreign countries where they studied the progress made in education, publishing, libraries, theaters, and healthcare institutions. They firmly believed that it was necessary to implement these progressive ideas in Turkestan and thus contributed to the development of textbooks, the opening of modern schools, and the establishment of national journalism. The article employs comparative and analytical methods to examine their travel writings, uncovering their forward-thinking educational ideas. Behbudi and Ibrat considered education to be a powerful tool for overcoming ignorance and achieving national enlightenment. Their legacy remains

relevant today and can serve as a valuable foundation for the ongoing educational reforms in modern Uzbekistan.

### KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar xalqimiz tarixida tub burilish yasagan davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu davrda vujudga kelgan jadidchilik harakati, uning namoyandalari tomonidan ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, ta'lim sohasida boshlangan tub islohotlar, xalq ongini uyg'otishga qaratilgan intellektual va ma'rifiy sa'y-harakatlar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Mazkur harakatning peshqadam vakillaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy va Is'hoqxonto'ra Ibrat o'z zamonasining teran fikrli, yangilikka ochiq, xalq taqdiriga befarq bo'lmagan ziyolilari sifatida e'tirof etiladi. Ularning yozgan asarlari, xususan, safar xotiralarini nafaqat tarixiy manba, balki pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy qarashlarning aks etgan muhim dalillari sifatida o'rganilishi lozim.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asari, shuningdek, Ibratning o'z zamonasida yozib qoldirgan safar taassurotlari, bu ikki ma'rifatparvar shaxsning xorijiy davlatlarda kuzatgan zamonaviy ta'lim tizimlari, ularning ustunlik jihatlari va eng muhimi, bu tajribalarni o'z yurti Turkistonga olib kirish zarurligi haqidagi fikrlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Ularning safar davomida ko'rgan voqeliklarga bergan baholari, jamiyatni isloh qilish haqidagi orzu-umidlari, maktab, madaniyat va matbuot borasidagi qarashlari orqali jadidchilik harakatining maqsad va yo'nalishlarini ham anglash mumkin. Behbudiy Turkiya, Kavkaz, Misr, Rossiya kabi mamlakatlarga qilgan safarlarida ilg'or ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishgan, o'z yurtidagi ta'lim tizimining qoloqligi, tashkilotchilik yetishmasligi, darsliklar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar yo'qligidan qayg'uga tushgan holda, o'z asarlarida bu muammolarni ochiq va tanqidiy yoritgan. Ayniqsa, maktablarning soni va sifati, kutubxonalar, kitoblar, matbaa sohasidagi yutuqlarni qiyosiy tarzda tahlil qilishi Behbudiy qarashlarining amaliyotga yo'naltirilganini anglatadi.

Is'hoqxonto'ra Ibrat esa xalq orasida "Ibrat domla" nomi bilan mashhur bo'lib, o'zining lug'atshunoslik, tarjimonlik, tarixchilik va publitsistik faoliyati bilan tanilgan. U ham safarlari orqali dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy va madaniy hayot, ta'lim tizimi, kitob nashri, madrasalarning islohoti, diniy va dunyoviy ilmlarning uyg'unligi kabi muhim jihatlarni o'rganib, o'z asarlarida buni keng yoritgan. Uning "Lug'ati sitta alsina" (Oltita til lug'ati), "Tarixi Farg'ona" kabi asarlari orqali milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilgani, ayniqsa, xalqni ilm-ma'rifat sari yetaklashda faol bo'lgani tarixiy haqiqatdir. Ibrat o'z safar taassurotlarida ko'rgan yuksak madaniyatli davlatlar hayotiga havas bilan qaragan, ularning taraqqiyot kalitini aynan zamonaviy ta'limda ko'rgan. U o'z asarlarida maktablarni milliy qadriyatlar asosida isloh qilish, o'quv dasturlarini boyitish, darsliklar yaratish, ona tili, geografiya, tarix kabi fanlarni zamonaviy yondashuvda o'qitish g'oyalarini ilgari surgan.

Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy va Is'hoqxonto'ra Ibratning safar xotiralariga tayangan holda ularning zamonaviy ta'lim haqidagi qarashlari, bu fikrlarning o'z davrida qanday ahamiyat kasb etgani, zamonaviy O'zbekistonda bu meros qanday yangicha talqin qilinishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ularning safarlari davomida guvoh bo'lgan madaniy-ma'rifiy manzaralarning ta'limga bo'lgan qarashlariga qanday ta'sir etgani, ilg'or

mamlakatlarning tajribalarini Turkistonda tatbiq etish yo'lida qilgan sa'y-harakatlari, jadid maktablarini ochish va darsliklar yaratishdagi fidokorona faoliyati o'z aksini topadi. Bu orqali biz nafaqat tarixiy bir haqiqatni anglaymiz, balki hozirgi kunda ta'lim islohotlarida foydalanilishi mumkin bo'lgan ibratli yondashuvlarni ham ko'rib chiqamiz.

## **TADQIQOT MATERIALI VA USULLARI**

### **Tadqiqot usullari**

Mazkur ilmiy maqolada qo'llanilgan tadqiqot usullari, asosan, tarixiy-filologik, qiyosiy-tahliliy, kontent-analiz va tipologik metodlarga asoslangan bo'lib, ular yordamida Mahmudxo'ja Behbudiy va Is'hoqxonto'ra Ibratning safar xotiralarida ifodalangan zamonaviy ta'limga oid qarashlar chuqur o'rganildi. Tadqiqot davomida birinchi navbatda tarixiy yondashuv asosida bu ikki ziyolining yashagan davri, ijtimoiy-siyosiy muhit, ta'lim tizimining holati, jadidchilik harakati kontekstida baholandi. Jumladan, Behbudiy va Ibratning fikrlari va g'oyalari Turkiston o'lkasidagi XIX asr oxiri va XX asr boshidagi madaniy-ma'rifiy uyg'onish kontekstida tahlil qilindi. Ushbu tarixiy yondashuv ulug' ma'rifatparvarlar tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta'lim g'oyalarining qanday tarixiy shart-sharoitlarda shakllanganini aniqlash imkonini berdi [Qosimov 1999: 5–10].

Shuningdek, maqolada qiyosiy-tahliliy yondashuv muhim o'rin tutdi. Behbudiy va Ibrat tomonidan yozilgan safar xotiralarini o'zaro qiyoslandi, ularning qanday davlatlarda bo'lgani, qanday tajribalarni kuzatgani va bu tajribalarga nisbatan bildirgan fikrlari tahlil qilindi. Masalan, Behbudiy Turkiya va Misrdagi maktablar, kutubxonalar, matbaachilik taraqqiyoti haqida batafsil ma'lumot bergan bo'lsa, Ibrat o'z xotiralarida xalq savodxonligini oshirish, o'quv dasturlarini boyitish zarurligiga urg'u bergan. Ikkala adibning qarashlari va kuzatgan manzaralari o'rtasida o'xshashliklar va tafovutlar aniqlanib, ularning qarashlaridagi umumiy ma'rifiy yo'nalish ochib berildi [Behbudiy 1999: 54–131; Ibrat 2005].

Kontent-analiz usuli asosida esa asarlar matni doirasida "maktab", "o'qish", "ilm", "ma'rifat", "kitob", "matbaa", "bolalar", "yoshlar tarbiyasi", "usuli jadid", "kutubxona" kabi kalit tushunchalarning uchrash chastotasi aniqlanib, ular qanday kontekstda ishlatilgani ko'rib chiqildi. Bu metod yordamida Behbudiy va Ibratning ta'limga oid fikrlari safar taassurotlari matnlarida qanday andozada ifodalangani, qanday tilda yoritilgani aniqlashga erishildi [Egamov 2022: 162–163].

Bundan tashqari, tipologik usul yordamida mualliflarning ta'limga bo'lgan qarashlari boshqa jadid adiblari — Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi zamondosh ziyolilarning qarashlari bilan qiyosiy planda o'rganildi. Bu orqali tadqiqotda birinchi navbatda bu ikki adibning ta'lim sohasidagi fikr-mulohazalarining o'ziga xosligi va umumiyliklari aniqlashtirildi. Ushbu yondashuv yordamida nafaqat zamonaviy ta'limga oid konkret fikrlar tahlil qilindi, balki ushbu qarashlarning jadidchilik harakatining umumiy ideologiyasi bilan qanday bog'langanligi, qaysi jihatlari bilan milliy uyg'onish g'oyasini ifodalaganligi aniqlab berildi [Dolimov 2006: 8–9].

### **MATERIAL TAVSIFI**

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida ikki muhim asosiy matn tanlab olindi: Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asari va Is'hoqxonto'ra Ibratning safar taassurotlari bilan bog'liq tarjimai holi va publitsistik yozuvlari. Behbudiy tomonidan

yozilgan “Qasdi safar” safarnomasi ilk bor 1907–1908-yillarda nashr qilingan bo‘lib, keyinchalik uning to‘liq matni “Tanlangan asarlar” to‘plamida joylashtirilgan [Behbudiy 1999]. Ushbu safarnomada muallif Turkiya, Misr, Kavkaz, Berlin, Quddus, Marv, Moskva kabi joylarga qilgan safarlari davomida kuzatgan ijtimoiy va madaniy manzaralar, xususan, ta‘lim va madaniyat muassasalarining holati haqida batafsil ma‘lumot beradi.

“Qasdi safar”da muallif Istanbuldagi kutubxonalar, maktablar, universitetlar faoliyatini yuqori baholagan, xalq savodxonligi, ta‘limga berilgan e‘tibor, muallimlar mavqei, kitoblar sifati haqida o‘z kuzatuvlarini bayon etgan. Ayniqsa, Turkiyadagi jome‘lar, madaniy markazlar, ilm dargohlari, matbaachilik taraqqiyoti Behbudiyni hayratda qoldirgani va undan ibrat olish kerakligi xulosasiga kelgani asarda ochiq aks etgan [Behbudiy 1999: 64, 95, 115].

Is‘hoqxonto‘ra Ibratning esa safar xotiralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri nashr etilgan mustaqil safarnoma emas, balki uning yozgan publitsistik asarlari, tarjimalaridagi, darslik va lug‘atlaridagi izohli eslatmalari orqali tiklangan. U Rossiya, Eronga qilgan safarlari davomida til o‘rganish, ilm-ma‘rifat, matbaa, xalq hayoti bilan tanishgan. Ayniqsa, u yaratgan “Lug‘ati sitta alsina” (oltita tilning izohli lug‘ati), “Tarixi Farg‘ona”, “Sayohatnoma”, “Tarjimai hol” singari asarlarida u xorijiy ta‘lim tizimi, madaniy va ilmiy taraqqiyot haqida mulohazalar bildirgan. Ibratning ilmga, ta‘limga doir qarashlari o‘zining ham o‘qituvchi, ham tarjimon sifatida shakllangan tajribasiga tayangan. Bu jihatlar uning asarlarida o‘z ifodasini topgan [Ibrat 2005; Qosimov 2002].

Bundan tashqari, yordamchi manbalar sifatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Gaspirali singari jadid arboblarning zamonaviy ta‘lim haqidagi qarashlari ham tahlil qilindi. Ushbu materiallar Behbudiy va Ibrat qarashlarini kengroq kontekstdan anglashda xizmat qildi [Shamsutdinov va boshq. 2011: 306–308; Egamov 2022: 163].

### **MUHOKAMA**

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Is‘hoqxonto‘ra Ibratning safar xotiralarida zamonaviy ta‘lim masalalariga bo‘lgan yondashuvlari o‘z zamonasining ilg‘or fikrli ziyolilarining qarashlari sifatida o‘ziga xos tarixiy, pedagogik va mafkuraviy ahamiyatga ega. Ularning qarashlari o‘zbek milliy uyg‘onish davrining asosiy g‘oyaviy harakatlaridan biri – jadidchilik tafakkurining asosiy mazmunini tashkil etadi. Jadid ziyolilari tomonidan ilgari surilgan ta‘lim islohoti g‘oyalari, ayniqsa zamonaviy ta‘lim tizimini shakllantirish, milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta‘minlash, o‘qitish metodikalarini takomillashtirish masalalarida aniq va real takliflar shaklida ifodalangan. Ayniqsa, Behbudiyning “Qasdi safar” asarida chet mamlakatlardagi ta‘lim muassasalari, matbaa, kutubxona va madaniy hayotga oid tasvirlari orqali u zamonaviy ta‘limning xalq hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglagani ayon bo‘ladi. Uning bu boradagi qarashlari faqat nazariy mulohazalar emas, balki amaliy faoliyat bilan birga kechgan. U maktablar tashkil qilgan, darsliklar yozgan, gazeta-jurnal nashr etgan va bu orqali ta‘lim tizimining tubdan isloh etilishiga zamin yaratgan [Behbudiy 1999: 54–115].

Is‘hoqxonto‘ra Ibrat esa o‘z asarlarida, ayniqsa til, lug‘atshunoslik, tarix va madaniyatga oid asarlarida ta‘limga oid chuqur mulohazalar bildiradi. U ham o‘z vaqtida xorijiy davlatlarda bo‘lib, u yerdagi ilg‘or maktablar, pedagogik metodikalar,

muallimlar tayyorlash tizimi va darsliklar mazmuni bilan tanishgan. Ibratning ta'limga oid qarashlarida xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosiy tamoyil sifatida ilgari suriladi. U o'z tajribasiga asoslanib, maktabda faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlarni ham chuqur o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, uning "Lug'ati sitta alsina" kabi asarlari orqali o'quvchilarni bir nechta tilni egallashga undashi xalqaro madaniy va ilmiy aloqalarga ochiqlik g'oyasining timsolidir [Ibrat 2005].

Behbudiy va Ibratning zamonaviy ta'limga doir qarashlari umumiy jihatdan qaralganda, ularning ikkalasi ham zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, ularni milliy hayotga tatbiq etish, mustamlaka sharoitida xalqni uyg'otish, ma'rifatli jamiyat barpo etish kabi yuksak maqsadlarga xizmat qilgan. Ular maktabni shunchaki savod chiqarish maskani sifatida emas, balki ongli, erkin, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalovchi milliy institut sifatida tasavvur qilishgan. Shuning uchun ham ularning qarashlari bugungi ta'lim islohotlari jarayonida ham yangicha talqin etilishi mumkin. Masalan, hozirgi ta'limda ham til o'rgatish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, darslik sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni zamonaviylashtirish kabi muammolar dolzarb bo'lib, Behbudiy va Ibratning tarixiy tajribasi bu jarayonda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot davomida Mahmudxo'ja Behbudiy va Is'hoqxonto'ra Ibrat tomonidan yozilgan safar xotiralari, ularning o'z zamonasi ta'lim tizimiga bergan baholari, chet mamlakatlarda kuzatgan ilg'or tajribalari asosida bir qancha muhim ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi. Avvalo, bu ikki ma'rifatparvarning safar davomida ko'rgan manzaralarga nisbatan ifoda etgan munosabatlari, ularning ta'limga oid fikr-mulohazalari faqat bir ziyolining shaxsiy taassurotlari emas, balki butun bir millat ma'naviy uyg'onishining mazmuni, ijtimoiy ehtiyojning aks-sadosi sifatida talqin qilinishi kerak. Behbudiy "Qasdi safar" asarida Turkiya, Kavkaz, Misr va Rossiya kabi hududlardagi maktab, kutubxona, matbaa, teatr, jome' va boshqa ma'naviy-ma'rifiy markazlar faoliyatini chuqur tahlil qilgan. U o'z yurti Turkistondagi ta'lim tizimining orqada qolganligi, maktablarning sifatsizligi, darsliklar yetishmasligi, zamonaviy metodikalarning mavjud emasligini chuqur qayg'u bilan qabul qilgan va o'z safar taassurotlarini shu holatni isloh qilish yo'lida jamiyatga taqdim etgan [Behbudiy 1999: 64–131].

Is'hoqxonto'ra Ibrat esa o'z safarlarida, ayniqsa Rossiya va Eron hududlarida kuzatgan o'zgarishlar, ilm-fan va ta'limdagi yutuqlarni yurtida tatbiq etish lozimligi haqida qat'iy fikr bildirgan. Ibratning qarashlari asosan til o'rganish, xorijiy fanlar asoslarini egallash, o'quvchilarda tafakkur, dunyoqarashni kengaytirish, shaxsni yuksak axloqiy mezonlar asosida tarbiyalash g'oyasiga asoslangan. Uning yozgan "Lug'ati sitta alsina", "Tarixi Farg'ona", "Sayohatnoma" kabi asarlarida ta'limni rivojlantirish uchun birlamchi shart — bu bilim, kitob va o'qituvchi mavqeini yuksaltirish ekanligi yaqqol ifodalangan [Ibrat 2005].

Mazkur ikki muallifning safar taassurotlari shuni ko'rsatadiki, ularning qarashlarida ta'lim jamiyat taraqqiyotining negiziy omili sifatida talqin qilinadi. Ular uchun ta'lim – bu faqat bilim emas, balki xalqning o'zligini anglash, erkinlik, milliy uyg'onish, madaniyat, ma'rifat va istiqlool yo'lidagi eng asosiy vosita bo'lgan. Shuning uchun ular zamonaviy ta'limni tashkil etishda yangi metodika va yondashuvlarni ilgari

suradilar. Behbudiy “usuli savtiya” asosida tez savod chiqarish uslubini qo’llab-quvvatlab, bu usulni yurt maktablariga joriy qilish zarurligini ko’rsatgan, darsliklar yozgan, o’qituvchilar tayyorlashga e’tibor qaratgan [Egamov 2022: 162–163].

Yana bir muhim natija shundaki, Behbudiy va Ibrat safar xotiralarini orqali o’z zamonasi ta’lim tizimini qiyosiy planda tahlil qilish, ilg’or tajribalarni o’rganish, ularni milliy madaniyat va ijtimoiy muhitga moslab tatbiq etish tamoyillarini ilgari surgan. Ular o’z asarlarida chetdan ko’rgan tajribalarni ko’r-ko’rona ko’chirishni emas, balki ongli tarzda, milliy manfaatlarni hisobga olgan holda, ijtimoiy shart-sharoitga moslashtirishni taklif qilishgan. Behbudiy matbaachilik, teatr, kutubxona, gazeta-jurnal nashrini ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida baholagan. U matbuotni — o’qituvchi, kitobni — yo’lboshchi, kutubxonani — xalq uchun ochiq maktab sifatida tasvirlagan. Ibrat esa aynan kitobni xalq ongini uyg’otuvchi vosita deb bilgan va til o’rganish, tarjima faoliyatini rivojlantirish orqali zamonaviy tafakkurni shakllantirishga uringan [Qosimov 2002: 145–147].

Umuman olganda, ushbu tadqiqot shuni ko’rsatdiki, Behbudiy va Ibratning safar xotiralaridagi zamonaviy ta’limga doir qarashlari nafaqat tarixiy-badiiy yodgorlik, balki bugungi kundagi ta’lim islohotlariga ham amaliy ahamiyatga ega bo’lishi mumkin. Xususan, ularning ta’limni milliy qadriyatlar asosida tashkil qilish, xalqning madaniy, iqtisodiy va siyosiy uyg’onishida asosiy poydevor deb qarashlari — bugungi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlariga turtki beruvchi g’oyaviy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida ta’limda milliylikni saqlagan holda zamonaviy yutuqlarni joriy etish zarurati Behbudiy va Ibrat qarashlarini bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sifatida ko’rsatmoqda.

### **XULOSA**

Mahmudxo’ja Behbudiy va Is’hoqxonto’ra Ibratning safar xotiralarida aks etgan zamonaviy ta’limga oid qarashlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida ham nazariy asos va ma’naviy tayanch bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ularning fikricha, ta’lim – bu xalqning milliy o’zligini anglashga, uni jaholat girdobidan chiqarishga, erkinlik va taraqqiyot sari yetaklovchi kuchdir. Ayniqsa, Behbudiy o’zining “Qasdi safar” asarida chet mamlakatlardagi maktablar, kutubxonalar, matbaalar va madaniy muassasalar faoliyatini kuzatgan holda, bu tajribalarni o’z yurti Turkistonda tatbiq etish zarurligini ta’kidlaydi. Ibrat esa xalqni savodli qilish, bilim olishga da’vat etish uchun ko’p tilli lug’atlar, tarixiy va diniy darsliklar yaratgan, o’qituvchilarning pedagogik salohiyatini oshirish g’oyasini ilgari surgan. Ularning har ikkisiining safar davomida to’plagan tajribalari, turli mamlakatlarda kuzatgan ilg’or ta’lim shakllari ularni ta’lim islohoti zaruriyatiga yanada qat’iy ishontirgan.

Behbudiy va Ibrat uchun zamonaviy ta’lim tushunchasi faqat darsliklar va metodikalar bilan cheklanmagan, balki ularning qarashlarida ta’lim millat taqdiri bilan bevosita bog’liq masala sifatida baholangan. Ular o’z asarlarida maktabni ongli va vatanparvar avlod tarbiyasining asosiy poydevori sifatida talqin etishgan. Ularning ta’limga oid qarashlarida milliylik va zamonaviylik uyg’unlikda mavjud bo’lib, bu holat jadidchilik harakatining mohiyatini ochib beradi. Aynan shu jihat – ya’ni dunyo tajribasini o’rganib, uni milliy madaniyat bilan uyg’unlashtirish, ayni paytda xalq ichida savodxonlikni yoyish – bu ikki ma’rifatparvarning qarashlarini o’z davri uchun ham, bugungi kun uchun ham dolzarb qiladi. Shu boisdan, bugungi O’zbekiston ta’lim

tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida Behbudiy va Ibratning safar xotiralari va undagi zamonaviy ta'limga doir fikr-mulohazalari yana bir bor qayta o'rganilishi va amaliy jihatdan qo'llanilishi lozim. Ularning boy ilmiy-ma'naviy merosi bugungi avlodni ham ilm-ma'rifat sari yetaklovchi kuchli ruhiy-ma'rifiy manba bo'lib qolmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bexbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – 256 b.
  2. Ibrat I. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2005. – 240 b.
  3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: “Universitet”, 2006. – 160 b.
  4. Kosimov B. Karvonboshi // Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuz. va tahrir etuvchi B. Qosimov. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – B. 5–10.
  5. Baldauf I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: “Ma’naviyat”, 2001. – 104 b.
  6. Yegamov Sh.F. Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim sohasida amalga oshirgan ishlari va ma'rifatparvarlik faoliyati // Ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. – Toshkent: STARS International University, 2022. – B. 162–163.
  7. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Andijon: “Andijon”, 2011. – B. 306–309.
  8. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – T.: “Ma’naviyat”, 2002. – 192 b.
  9. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). 2-kitob. – T.: “Sharq”, 2003. – B. 266–271.
- References
10. Bekhbudiy M. Selected works. – T.: “Manaviyat”, 1999. – 256 p.
  11. Ibrat I. Selected works. – T.: “Manaviyat”, 2005. – 240 p.
  12. Dolimov U. New schools in Turkestan. – T.: “University”, 2006. – 160 p.
  13. Kasimov B. Caravan leader // Mahmudkhodja Bekhbudiy. Selected works. Compiled and edited by B. Kasimov. – T.: “Manaviyat”, 1999. – P. 5–10.
  14. Baldauf I. Sketches of Uzbek literature of the 20th century. – T.: “Manaviyat”, 2001. – 104 p.
  15. Egamov Sh.F. Mahmudkhodja Behbudi's work in the field of education and educational activities // Modern trends in innovative development in science and education. – Tashkent: STARS International University, 2022. – P. 162–163.
  16. Shamsutdinov R., Muminov H. History of Uzbekistan. – Andijan: “Andijan”, 2011. – P. 306–309.
  17. Kasimov B. National awakening. – T.: “Manaviyat”, 2002. – 192 p.
  18. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaidullaev U. History of the Motherland (XVI–XX centuries). Book 2. – T.: “Sharq”, 2003. – P. 266–271.